

O‘ZBEK TILINI SOHADA O‘QITISHDA YOZMA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH

Boboxonov G‘anisher

Namangan ishga marhamat monomarkaz muhandisi

Annotatsiya: Ma’lumki, hozirgi o‘zbek tilini o‘qitishda so‘z turkumlari tasnifi masalasi ko‘pgina munozaralarga sabab bo‘ladi. Ularning aniq belgilab berilmaganligi, ta’rifga so‘z xususiyatlarining mos kelmasligi, tasniflash qoidalarining buzilishi morfologiyani o‘qitishda ham muammolar tug‘diradi. Quyida biz daraja-miqdor ravishlari borasida fikr yuritmoqchimiz.

Kalit so‘zlar: ravish, mustaqil so‘zlar, noaniq miqdor, harakat belgisi, daraja, o‘zgarmas so‘z turkumi, o‘zgarmaslik.

Kirish

Ravish – harakatning o‘rin, payt, sabab, va sh.k.larga ko‘ra belgisini bildiruvchi so‘z turkumidir¹. U belgi, miqdor yoki holatni, o‘rin-payt manosini ifodalaydi va bu jihatdan ot, sifat, songa yaqin turadi. Ulardan farqli jihati shundaki, so‘z o‘zgartiruvchi, shakl yasovchi qo‘shimchalar bilan birika olmaydi². Ravish turkumining o‘ziga xos xususiyati sifatida o‘zgarmaslik tushuniladi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘zbek tilining grammatik qurilishini Yevropa tilshunosligi an‘analari asosida o‘rganish so‘z turkumlari tarkibida ravishga ham e’tibor qaratila boshlandi. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

E.R.Tenishev³, A.M.SHcherbak⁴ asarlarida ravishlar o'zgarmas so'z sifatida talqin etiladi.

O'tgan asrning 50-yillarida yaratilgan S.Fuzailovning tadqiqotida⁵ ravishga: Mazmunan ot, sifat, son va qisman olmoshlarga yaqin bo'lib, morfologik jihatdan o'zgarmaydigan mustaqil so'zlarga ravish deyiladi⁶, – tarzida ta'rif berilgan. Keyingi davrlarda T.Asadovning “So'z turkumlari tizimida ravish” nomli monografiyasi bu boradagi muhim tadqiqotlardan bo'ldi deb ayta olamiz.

Natijalar.

Daraja-miqdor ravishlari qancha?, qay darajada? so'roqlariga javob bo'ladi. Aynan darajani yoki miqdorni bildirishiga ko'ra ikkiga ajratiladi:

1. Miqdor ravishlari
2. Daraja ravishlari

Miqdor ravishlari: Miqdor-daraja ravishlari miqdoriy sifat va darajani ifodalaydi: *biroz, sal, picha, xiyla, xiyol, qittak, jinday, tirnoqcha, zig'ircha, talay* kabi

Ko'p, kam, oz, ancha. Ravish sifatida qaralayotgan ushbu so'zlarimiz ravishning o'zgarmas turkum ekanligini istisno etadi. Noaniq miqdorni bildiruvchi bu so'zlarni ravish turkumiga mansub deb qarajak, ularni o'zgarish xususiyatiga egaligi (egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalarini olishi) buni rad etadi. Demak, bu so'zlarni ismlar guruhiga kiritish kerak.

1. Ko'pi ketib, ozi qoldi.

2. Ko'plar kelmadi.

3.Topshiriqlarning anchasi qolib ketdi .

4.Ko'pning duosi ko'l .

5. Men maoshning eng kamiga ham rozi edim .

Ko'p, kam, oz, ancha – noaniq sonlarmi yoki daraja-miqdor sifatlari?

Bu so'zlarni son so'z turkumi doirasiga kiritadigan bo'lsak, sonlarni miqdor, tartib va ularga qo'shimcha tarzda noaniq sonlar guruhlariga bo'lishimiz kerak. Bu so'zlar sonning mano turini hosil qiluvchi shakllarni qabul qilmaydi. Istisno: Ko'plab odamlar soy tarafga ketishardi.

Sonlar darajalanmaydi. Darajalanish xususiyatiga esa ravish va sifat turkumlari ega .

Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, ko'p (juda ko'p, ko'proq), kam (kamroq, juda kam), oz (xiyol oz, ozroq) darajalana oladi. Bu so'zlarni o'zgarish xususiyatiga ega ekanligi va darajalana olishiga ko'ra sifat turkumiga kiritilishini taqozo etadi. Demak, sifatlar predmetning, ba'zan harakatning miqdorini ham bildirishi mumkin.

Daraja ravishlari: Harakat va holatning bazan predmetning darajasini bildiruvchi qay darajada?, qancha? so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar daraja ravishlaridir: juda, g'oyat, bag'oyat, nihoyatda, har qancha, obdon, ozmuncha, hech, aslo, yana, g'irt, lang, o'ta, tag'in, tobora, butkul, mutlaqo, eng...

Lekin bu so'zlarga so'roq berganimizda g'alizlik paydo bo'ladi :

1. Biz uni yana kutdik .
2. Aslo bu haqida og'iz ochma .
3. Sira gapga ko'nmaydi .
4. Hech bizga ko'nika olmadi .
5. Nihoyatda dabdabali joy ekan .
6. Bu reja g'oyat puxta tuzilgan ...

Xulosalar. Bu soʻzlar, odatda, asliy sifatlar oldidan qoʻllanilib, belgining meyordan ortiq yoki kamligini ifodalab keladi va alohida olinganda mustaqil manoni, aniq tushunchani ifodalay olmaydi, soʻroqqa javob boʻlmaydi. Shu jihatlarga koʻra bu soʻzlarni soʻzga qoʻshimcha mano beruvchi leksik birliklar (yuklamalar) sifatida oʻrganilishi maqsadga muvofiqdir.

N:		Olmosh	Sifat	Ravish
1.	Gʻoyat		Koʻp	Biroz
2.	Nihoyatda		Oz	Jinday
3.	Juda		Xiyla	Qittay
4.	Oʻta		Kam	Andak
5.	Gʻirt		Ancha	Tirnoqcha
6.	Eng			Zigʻircha
7.				Keragicha
8.				Yetarlicha
9.				Tegishlicha

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ravish turkumiga oid soʻzlarning semantik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlarini chuqurroq va tizimli oʻrganish, bu turkumga aslida mansub boʻlmagan xususiyatlar “adashib” birlashtirilayotganini koʻrsatadi.

Oʻzbek tilini texnik sohalarda oʻqitilishida yozma savodxonlikni oshirish oʻzbek tiliga boʻlgan gʻurur va iftixorni anglashda muhim omil boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asadov T. Soʻz turkumlari tizimida ravish. Monografiya. – Toshkent: Muharrir, 2010.
2. Qilichev E. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Bakalavr – oʻzbek filologiyasi ixtisosligi uchun qoʻllanma. – Buxoro, 2005., 208-b.
3. Qilichev E. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Bakalavr – oʻzbek filologiyasi ixtisosligi uchun qoʻllanma. – Buxoro, 2005., 208-b.
4. Sravnitelno–istoricheskaya grammatika tyurkskix yazlkov. Morfologiya. Otv. redaktor E.R.Tenishev. – M. : Nauka, 1988.
5. Struktura i istoriya tyurkskix yazykov. Otv. redaktor E.R.Tenishev. – M.: Nauka, 1971.
6. Fuzailov S. Oʻzbek tilida ravishlar. –Toshkent: Fan, 1953.
7. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: “Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 83-bet.
8. SHerbak A.M. Ocherki po sravnitelʹnoy morfologii tyurkskix yazykov (Narechie, slujebnye chasti rechi, izobrazitelʹnye slova). –L.: Nauka, 1987.